





Nogironlik pensiyasini qayta hisoblatish

Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada nogironlik pensiyasini ish stajiga qarab qayta hisoblatish haqida bilib olasan.
	2023-yil 1-yanvardan boshlab sen nogironlik pensiyangni har 2 yilda 1 marta ● ishlagan vaqting ● oyligingga qarab qayta hisoblatishing uchun **“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi** qonuniga o‘zgartirish kiritildi.
	2023-yilda 75 mingta nogironligi bor insonlarning pensiyasiga 300 000 (uch yuz ming) so‘mdan qo‘shildi.
	**Sen pensiyani qayta hisoblatishing mumkin bo‘lgan holatlar:** ● sening nogironlik guruhing o‘zgarganda.

	Senga birinchi va ikkinchi guruh nogironlik pensiyasi berilganidan keyin ishlagan vaqting va oyligingga qarab 2 yilda 1 marta pensiyang qayta hisoblab ko‘paytiriladi.
	**Masalan**: • Sen 2 yil ya’ni 2022-yildan 2024-yilgacha ishlagansan. • Bunda sening pensiyang qayta hisoblanadi va ko‘paytiriladi.
	Sening pensiyangni hisoblash uchun oxirgi **10 yillik** ishlagan vaqting hisobga olinadi.
	Sening pensiyangni hisoblash uchun oxirgi 10 yillikdagi **5 yillik oyliklari** qo‘shilib **60 ga bo‘linadi.**
	Nogironlik pensiyasini qayta hisoblashda: • **sening ishlangan vaqting** • **oyliging** • **qayta hisoblash uchun sabablar** hisobga olinadi.
	Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 125-bandiga ko‘ra, **pensiyani qayta hisoblash uchun sabablar**

	paydo bo‘lganda sen ariza bilan murojaat qilishing kerak.
	Sen arizaga qo‘shib **pensiyani qayta hisoblashga sabab bo‘ladigan hujjatlar**ni ham topshirishing kerak bo‘ladi.
	**Pensiyani qayta hisoblashga sabab bo‘ladigan hujjatlar:** ● sening nogironlik guruhing o‘zgarganligi haqidagi hujjat ● sen 1 yildan ko‘p ishlaganliging haqidagi hujjat.
	Pensiya jamg‘armasi besh kunda sening pensiyangni qayta hisoblash haqidagi arizangni ko‘rib chiqadi *(*Ariza shakli ilova qilingan).
	Sen pensiyani qayta hisoblatishda avval ishlatilgan **hujjatlar** yoki pensiyani qayta hisoblashga **kerak bo‘lmagan hujjatlar** topshirsang sening **pensiyang qayta hisoblanmaydi.**
	“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning 32-moddasiga ko‘ra, sening xohishingga

	qarab, sen o‘qish vaqtida olgan stipendiyang ham oylik hisoblanadi.
	Stipendiya – bu talabalarga qo‘shimcha ta’lim olish uchun beriladigan pul yordami.
	Agar sen o‘qish davrida olgan stipendiyangni ham oylik sifatida olmoqchi bo‘lsang, bu to‘g‘risida pensiya jamg‘armasiga aytishing kerak.
	Sen nogironlik pensiyasini **qayta hisoblatishing uchun** (tuman) shahar **Pensiya jamg‘armasiga** borib ariza berishing shart.
	Nogironlik pensiyasini qayta hisoblatishda eng **ko‘p muammo** bu **ishlagan vaqt** haqidagi ma’lumotlar Yagona Milliy Mehnat Tizimi ya’ni my.mehnat.uz internet manzilida **ko‘rinmasligidir.**
	Yagona Milliy Mehnat Tizimi bu – my.mehnat.uz internet manzili. Bu yerda insonlarning ish staji va bandligi haqidagi ma’lumotlar saqlanadi.

	Sening ishlagan vaqting my.mehnat.uz internet manzilida **ko‘rinmasa, ishlagan joyingga** murojaat qilishing va **ishlaganingni** tasdiqlovchi hujjatni olishing kerak.
	**Ishga kirganingda** yoki ishdan **bo‘shaganingda** tashkilotning ishchilar bilan ishlovchi xodimidan ma’lumotlaringni my.mehnat.uz ga kiritganligi haqidagi hujjatni **so‘rashing kerak**.
	Pensiya jamg‘armasi sening pensiyangni qayta hisoblashni rad etsa, uning sabablari, bu bo‘yicha shikoyat qilish tartibi haqida senga 5 kun ichida **“SMS” xabar yuborishi shart.**